



NAVOIY VILOYATI KARMANA TUMANI HOKIMINING QARORI

2026-yil 13-yanvar

7-5-71-Q/26

Karmana tuman hokimiligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda­gi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli hamda Navoiy viloyat hokimining 2025-yil 30-dekabrda­gi 327-5-0-Q/25-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash haqida

Tumanning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish sur’atlarini jadallashtirish, dolzarb muammolarga tez yechim topish borasidagi vakolatlari va moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ko‘zda tutilgan ustuvor vazifalarni izchil amalga oshirish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda­gi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli hamda Navoiy viloyat hokimining 2025-yil 30-dekabrda­gi 327-5-0-Q/25-sonli qarorlari (keyingi o‘rinlarda - Qaror deb ataladi) ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qaror bilan quyidagilar:

a) quyidagilar ushbu qarorni qabul qilishdan ko‘zlangan asosiy maqsadlar etib belgilanganligi:

mahalliy budjetlar daromadlari va qo‘shimcha manba mablag‘larini oshirish; mahalliy ijro etuvchi organlar rahbarlarining vakolatlarini kengaytirish orqali mustaqilligini ta’minlash;

mahalliy hokimliklar obodonlashtirish boshqarmalarining barqarorligini oshirish;

budjet intizomiga rioya etilishini kuchaytirish;

aholini kommunal xizmatlar bilan uzluksiz va barqaror ta'minlashda mahalliy hokimliklar mas'uliyatini oshirish;

b) 2026-yil 1-yanvardan boshlab quyidagi tartib o'rnatilganligi:

qo'shilgan qiymat solig'idan tushgan tushumlardan Toshkent shahar mahalliy budjetiga 5 foiz va qolgan hududlar mahalliy budjetlariga 20 foiz o'tkaziladi (yirik soliq to'lovchilardan tashqari);

mahalliy budjetlarga kelib tushadigan qo'shilgan qiymat solig'i, foyda solig'i va benzin, dizel yoqilg'isi va gazni yakuniy iste'molchiga realizatsiya qilishda to'lanadigan aksiz solig'i davlat boji, jarima va yig'imlar hisobidan tushadigan daromadlardan tuman (shahar)lar budjetlariga ajratmalar me'yorlari belgilanadi (yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan soliqlar hamda daromadlari xarajatlaridan ko'p bo'lgan tuman (shahar)lar bundan mustasno);

Xalq deputatlari tuman va shahar kengashlariga alkohol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkohol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig'imlarning cheklangan stavkalarini 20 foizgacha oshirish vakolati beriladi hamda mazkur yig'imlardan tushgan tushumlar to'liq miqdorda tuman (shahar)lar budjetlariga yo'naltiriladi;

O'zbekiston Respublikasi respublika budjetidan mahalliy budjetlarga o'tkazib beriladigan daromadlar prognozining oshirib bajarilgan qismining 50 foizi Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjeti va Toshkent shahrining shahar budjetiga hamda qolgan 50 foizi 2025-yil 1-dekabr holatidagi statistika organlaridan olingan tuman (shahar)lar aholisining tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri aholisidagi ulushiga muvofiq tuman (shahar)lar budjetlariga o'tkaziladi; quyidagi tushumlar mahalliy budjetlarga o'tkazilishi va qo'shimcha manba sifatida foydalanishi:

qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni to'g'ridan-to'g'ri ijaraga berishdan Davlat budjetiga o'tkazilishi belgilangan mablag'lar tegishli tuman (shahar)lar budjetlariga yo'naltirilishi;

dehqon bozorlari, ixtisoslashtirilgan va buyum bozorlaridan O'zbekiston Respublikasi respublika budjetiga tushgan soliqlar ushbu sohadagi hamda mahallalarda infratuzilmani yaxshilash uchun mazkur bozorlar joylashgan tuman (shahar)lar budjetlariga o'tkazilishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimi o‘rinbosarlari (Sh.Zayniyev, D.Nazarov, O‘.Tillayev, Sh.Xayriddinov, N.Shomiyeva) Qaror bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri, tuman (shahar)lar hokimliklariga quyidagi vakolatlar berilganligi inobatga olinsin:

o‘z hududida joylashgan ijtimoiy soha obyektlari bo‘yicha tuzilgan davlat xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitim majburiyatlari bajarilishi yuzasidan davlat sherigiga taqdimnoma kiritish;

ularning balansida bo‘lgan bo‘sh turgan ijtimoiy soha obyektlarini faoliyat turini o‘zgartirmaslik sharti bilan davlat-xususiy sheriklikka berish hamda davlat sherigi sifatida ishtirok etish.

4. Tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari:

2026-yil 1-martga qadar obodonlashtirish boshqarmasi kamida 0,5 ga yer maydonlarini ajratgan holda issiqxonalar tashkil etilishini ta‘minlasin;

2026-yil 1-apreldan tuman obodonlashtirish boshqarmasiga biriktirilgan hududlarga ular tomonidan yetishtirilgan mavsumiy gul ko‘chatlari ekilishi choralarini ko‘rsin.

bir oy muddatda obodonlashtirish boshqarmasiga biriktirilgan hududlardagi mavjud avtoturargohlarni to‘liq xatlovdan o‘tkazsin va 2026-yil 1-aprelga qadar barcha avtoturargohlarga avtomototransport vositalarining kirishini (chiqishini) nazorat qiluvchi avtomatlashtirilgan tizim o‘rnatilishini ta‘minlasin. Bunda hokimlikl shartnoma asosida foydalanishga berilgan avtoturargohlar 2026-yil 1-yanvardan boshlab faqatgina tegishli obodonlashtirish boshqarmalari tomonidan foydalanilishi choralarini ko‘rsin.

Bunda mazkur tadbirlarni amalga oshirish uchun talab etiladigan mablag‘lar mahalliy budjet va uning qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshirilishi belgilanganligi inobatga olinsin.

5. Tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari tuman hududidagi tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lmagan barcha istirohat va ko‘ngilochar bog‘lar hamda xiyobonlar obodonlashtirish boshqarmalariga biriktirilishini ta‘minlasin.

6. Tuman hokimi o‘rinbosarlari (Sh.Zayniyev, D.Nazarov, O‘.Tillayev, Sh.Xayriddinov, N.Shomiyeva), Qaror bilan mahalliy davlat hokimiyati organlariga:

budjet xarajatlari parametrlarini shakllantirish va ijro etishda ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, oziq-ovqat mahsulotlari va dori-darmon vositalarini sotib olish, shuningdek, kommunal xizmatlar xarajatlaridan mablag'lar yetishmovchiligiga yo'l qo'yish;

mahalliy budjet va uning qo'shimcha manbalari hisobidan normativ-huquqiy asosi bo'lmagan qo'shimcha shtat birliklarini saqlash;

moliyalashtirish manbai aniq bo'lmagan tadbirlarni va (yoki) parallel loyihalashtirish, tender savdolarini o'tkazmasdan amalga oshirilgan qurilish va ta'mirlash ishlarini moliyalashtirish va kreditor qarzdorliklarga yo'l qo'yish qat'iy qat'iyligi ta'qiqlanganligi to'g'risidagi belgilangan tartibga amal qilinishini ta'minlasin.

7.Qaror bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar va tuman (shahar)lar hokimliklariga tegishli mahalliy budjetdan mablag' bilan ta'minlanadigan budjet tashkilotlarida mavjud shtat birliklarining vazifa va funksiyalarini o'rganish asosida past samarali va bir-birini takrorlovchi shtat birliklarini maqbullashtirish vakolati berilganligi, bunda maqbullashtirilgan mablag'lar Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar va tuman (shahar)lar kengashlari qarorlari asosida aholi tomonidan ko'tarilgan ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasi bilan bog'liq dolzarb muammolarni bartaraf etish, shu jumladan, qo'shimcha shtat birliklarini joriy etish uchun yo'naltirilishi belgilanganligi ma'lumot va iro uchun qabul qilinsin.

8.Tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari tegishli korxona va tashkilotlar bilan birgalikda aholini kommunal xizmatlar (elektr, tabiiygaz, ichimlik suv va oqova suv ta'minoti) bilan uzluksiz va barqaror ta'minlashda yuzaga kelgan muammolar (avariyalar)ni tezkorlik bilan bartaraf etishga shaxsan mas'ul va javobgar etib belgilansin.

9. Mahalliy budjet va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar rejasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Chora-tadbirlarda belgilangan tadbirlarning o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi ta'minlansin.

10. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari hamda tuman hokimining o'rinbosarlari D.Nazarov, Sh.Xayriddinov, O'.Tillayev belgilansin.

11. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Zayniyev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



Sh.Boltayev

Karmana tumani hokimining
2026-yil 13-yanvardagi
7-5-71-Q/26-son qaroriga
1-ilova

**Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet
intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha
CHORA-TADBIRLAR REJASI**

T/R	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish muddati	Moliyalashtirish manbai	Mas’ul ijrochilar
I. Mahalliy budjetlar daromadlari va qo‘shimcha manba mablag‘lari oshirish hamda vakolatlarini kengaytirish				
1.	Mahalliy budjet daromadlari bazasini oshirish maqsadida: (a) davlat ulushi mavjud bo‘lgan dehqon bozorlari, ixtisoslashtirilgan va buyum bozorlarida hisobning to‘liq va to‘g‘ri yuritilishini ta’minlash uchun raqamlashtirish dasturini (keyingi o‘rinlarda - Dastur) ishlab chiqish; (b) dasturlarni kompleks ekspertizadanva kiberxavfsizlik talablariga muvofiqligi yuzasidan ekspertizadan o‘tkazish; (v) dasturlarni Soliq inspeksiyasi dasturiy ta’minotlari bilan	2026-yil 1- may 2026-yil 1- iyul 2026-yil 1- avgust	Bozorlarning o‘z mablag‘lari, zaruratga ko‘ra mahalliy budjet va uning qo‘shimcha manbalari	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Sh.Zayniye), Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (U.Rustamov) Tuman Soliq Inspeksiyasi (A.Ahmedov)

	integratsiya qilish			
2.	Davlat-xususiy sheriklik sohasida vakolatlarini kengaytirish maqsadida: (a) takliflariga asosan tashkilot va idoralarning balansida bo'lgan bo'sh turgan ijtimoiy soha obyektlarini inventarizatsiyadan o'tkazgan holda Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat boshqarmasiga taqdim etish;	har 6 oyda	-	Tuman hokimi o'rinbosarlari (Sh.Zayniyev, D.Nazarov), Iqtisodiyot va moliya bo'limi (U.Rustamov), budjet tashkilotlari rahbarlari,
II. Mahalliy hokimliklar obodonlashtirish boshqarmalarining moliyaviy barqarorligini oshirish				
3.	Obodonlashtirish boshqarmalariga biriktirilgan avtoturar-gohlardan samarali foydalanishni tashkil etish maqsadida: (a) obodonlashtirish boshqarmalariga biriktirilgan avtoturargohlarni to'liq xatlovdan o'tkazish; obodonlashtirish boshqarmalariga biriktirilgan b) barcha avtoturar-gohlarga avtomototransport vositalarining kirishini (chiqishini) nazorat	Bir oy muddatda 2026-yil 1- aprel	Mahalliy budjet va uning qo'shimcha manbalari	Tuman hokimi o'rinbosari (Sh.Zayniyev), Kadastr agentligi (N.Xamzayev), Iqtisodiyot va moliya bo'limi (U.Rustamov), Tuman Soliq inspeksiyasi (A.Ahmedov)

	qiluvchi avtomatlashtirilgan tizim o'rnatilishini ta'minlash; (v) hokimliklar tomonidan shartnoma asosida foydalanishga berilgan avtoturargohlardan faqatgina tegishli obodonlashtirish boshqarmalar tomonidan foydalanish choralari ko'rish; (g) obodonlashtirish boshqarmalariga birlashtirilgan barcha avtoturargohlar uchun kadastr hujjatlarini tayyorlash. Bunda hokimliklarga mazkur tadbirlarni amalga oshirish uchun mahalliy budjetlar qo'shimcha manbalaridan moliya yili davomida qaytarish sharti bilan obodonlashtirish boshqarmalarining budjetdan tashqari rivojlantirish jamg'armalariga budjet ssudalari taqdim etishga ruxsat beriladi.	Doimiy 2026-yil 1-aprel Doimiy		
4.	Qabristonlar hududini obodonlashtirish maqsadida quyidagilarni nazarda tutuvchi 3 yillik dasturi bo'yicha taklif ishlab chiqish: (a) qabristonlar hududini to'siq	2026-yil 1-aprel	Davlat budjeti mablag'lari	Tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish

	bilan o‘rash; xo‘jalik hovlilari va ayvonlari va ularga olib boruvchi yo‘llar va yo‘lkalarni tashkil etish.			masalalari bo‘yicha o‘rinbosari (Lavozimiga ko‘ra), Tuman Qurilish va uy- joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (A.Tashnazarov), Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (U.Rustamov), budjet tashkilotlari rahbarlari,
5.	Aholiga dam olish va sport bilan shug‘ullanishi uchun yanada qulay shart- sharoitlar yaratish maqsadida: (a) barcha istirohat va ko‘ngilochar bog‘larni xatlovdan o‘tkazib, tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lmagan istirohat va ko‘ngilochar bog‘larni obodonlashtirish boshqarmalariga biriktirish; (b) obodonlashtirish boshqarmalariga biriktirilgan istirohat va ko‘ngilochar bog‘lar infratuzilmasini	1-fevral 2026-yil 1-aprel	Mahalliy budjetlar qo‘shimcha manbalari, obodonlashtirish boshqarmalarining rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari, "drayver" loyihalar infratuzilmasi uchun ajratilgan mablag‘lar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan mablag‘lar	Tuman hokimi o‘rinbosari (D.Nazarov,) Tuman Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (A.Tashnazarov), Tuman tijorat banklari Tuman soliq inspeksiyasi (A.Ahmedov), budjet tashkilotlari rahbarlari,

	yaxshilash bo'yicha 2026-2028-yillarga mo'ljallagan dasturni tasdiqlash. Bunda yo'l va yo'laklarni ta'mirlash, tungi yoritish uskunalari va maishiy chiqindi qutilarini o'rnatish, favvoralar, sport ("Workout", "Universal" va "Streetball") maydonchalari, hojatxona va avtoturargohlar hamda yengil konstruksiyali savdo shoxobchalarini tashkil etish.			
6.	Obodonlashtirish boshqarmalariga birlashtirilgan hududlar, xususan, istirohat va ko'ngilochar bog'larda "K- SAVDO" AAT orqali ko'chma savdo joyini ijaraga berishdan tushgan daromadlar hamda yengil konstruksiyali savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalarini ijaraga berishdantushadigan tushumlarni (qonunchilikka muvofiq chegiriladigan xarajatlardan tashqari) obodonlashtirish boshqarmalarining rivojlantirish jamg'armalariga yo'naltirish chorasini ko'rish.	2026-yildan boshlab	-	Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (Sh.Zayniyev), Tuman Soliq inspeksiyasi (A.Ahmedov), Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi (U.Rustamov), kadastr agentligi (N.Xamzayev)

7.	Obodonlashtirish sohasi tashkilotlarining tasarrufidagi 2000-yilgacha ishlab chiqarilgan yaroqsiz maxsus texnikalar belgilangan tartibda ular tasarrufidan chiqarilishini ta'minlash. Bunda sotishdan tushgan mablag'lar to'liqligicha tegishli obodonlashtirish boshqarmalari moddiy texnika bazasini mustahkamlash uchun yo'naltiriladi.	2026-yil 1-fevralga qadar	-	Tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari (Lavozimiga ko'ra), Tuman qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi (A.Tashnazarov), Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi (U.Rustamov), budget tashkilotlari rahbarlari.
8.	Obodonlashtirish boshqarmalari faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida ma'muriy bino va avtoturargohlar bilan ta'minlash.	2026-yil yakuniga qadar	Mahalliy budget va uning qo'shimcha manbalari	Tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari (Lavozimiga ko'ra), Tuman Qurilish va uy-

				joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (A.Tashnazarov), budjet tashkilotlari rahbarlari.
III. Budjet intizomiga rioya etishini kuchaytirish				
9.	Qishloq va suv xo‘jaligi sohasi tashkilotlarida raqamlashtirishni jadallashtirish, bir-birini takrorlovchi vazifa va funksiyalarni chuqur tahlil qilish, bosqichma-bosqich tashkilotlarni o‘zini-o‘zi moliyalashtirishga o‘tkazish hisobiga past samarali shtat birliklarini hamda budjet xarajatlarini kamida 20 foizga maqbullashtirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga asoslantirilgan takliflar kiritish.	2026-yil 1may	-	Tuman hokimi o‘rinbosari (Sh.Xayriddinov) Tuman Qishloq xo‘jalig‘i bo‘limi Tuman suv yetkazib berish xizmati DM, Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (U.Rustamov)
10.	Tashkilot va idoralar, mahalliy hokimliklar, budjet tashkilotlarida buxgalteriya xizmati raqamlashtirilganligini inobatga olib hamda naqd pulsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish maqsadida budjet tashkilotlardagi “g‘aznachi”	2026-yil 1-mart	-	Tashkiliy kadrlar guruhi rahbari (S.Baxronov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (U.Rustamov), budjet tashkilotlari rahbarlari.

	shtat birligini qisqartirish			
--	------------------------------	--	--	--